

**O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Ichki audit boshqarmasining  
2025 yil I yarim yillik faoliyati natijalari bo‘yicha  
HISOBOTI**

*“O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Ichki audit boshqarmasi tomonidan 2025-yilda amalga oshiriladigan ichki audit tadbirlarining yillik ish rejasi”da I-yarim yillik uchun 31 ta ichki audit tadbirlari o‘tkazilishi belgilangan.*

*I-yarim yillikda 29 ta tizim tashkilotida rejali ichki audit tadbirlari o‘tkazilib, reja 94 foiz bajarildi.*

*Bundan tashqari, 9 ta tashkilotda rejadan tashqari, 1 880 ta holatlar bo‘yicha masofaviy nazorat tadbirlari o‘tkazildi.*

*Hisobot davrida o‘tkazilgan ichki audit hamda masofaviy audit tadbirlarida jami 3 478 576,0 mln so‘m moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlangan. Jumladan,*

*- Ichki audit tadbirlari 38 ta tizim tashkilotida o‘tkazilganda, 1 189 ta holatda jami 22 860,1 mln so‘m ortiqcha to‘lovlar aniqlanib, 5 ta 9 470,0 mln so‘mlik ichki audit tadbiri hujjatlari huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan.*

*- Masofaviy audit tadbirlarida 1 880 ta holatda jami 3 455 716,3 mln so‘mlik moliyaviy xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi aniqlangan.*

*Hisobot davrida o‘tkazilgan ichki audit tadbirlari bo‘yicha 38 ta tizim tashkilotiga aniqlangan xato va kamchiliklardan kelib chiqqan holda 234 ta taklif va tavsiyalar berilgan.*

*Taklif va tavsiyalar bo‘yicha tashkilotlar tomonidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, 214 tasining ijrosi ta‘minlangan. Qolgan 20 tasi joriy yilning iyun oyida o‘tkazilgan tadbirlardan kelib chiqqanligi, ortiqcha to‘lovni undirish bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli chora-tadbirlarni ijrosi davom etmoqda.*

*Hisobot davrida vazirlikka Hisob palatasining “Masofaviy nazorat” AAT orqali 1880 ta obyektida 11 turdagi 2 221 ta 3 455 716,3 mln so‘mlik xavflar kelib tushgan bo‘lib, shundan 8 turdagi 947 ta 3 449 652,0 mln so‘mlik xavflar tasdig‘ini topib, bartaraf etish choralari ko‘rilgan.*